


YANGI O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023



D.I. MENDELEEVNING
KIMYOVIY ELEMENTLAR
DAVRIY JADVALI

Актиниоды

Относительная
атомная масса
(атомный вес)

24 Cr Хром	25 Mn Марганец	26 Fe Железо	27 Co Кобальт	28 Ni Никель	29 Cu Медь	30 Zn Цинк	31 Ga Галлий	32 Ge Германий	33 As Мышьяк	34 Se Селен	35 Br Бром	36 Kr Криpton
42 Mo Молибден	43 Tc Технеций	44 Ru Рутений	45 Rh Родий	46 Pd Палладий	47 Ag Серебро	48 Cd Кадмий	49 In Индий	50 Sn Олово	51 Sb Сурьма	52 Te Теллур	53 I Йод	54 Xe Ксенон
74 W Вольфрам	75 Re Рений	76 Os Осий	77 Ir Иридий	78 Pt Платина	79 Au Золото	80 Hg Ртуть	81 Tl Таллий	82 Pb Свинец	83 Bi Висмут	84 Po Полоний	85 At Астат	86 Rn Радон
106 Lr Лантан	107 Bh Борий	108 Hs Хассий	109 Mt Мейтнерий	110 Ds Дармштадтий	111 Rg Рентген	112 Cn Коперниций	113 Nh Нихоний	114 Fl Флеровий	115 Mc Мачковий	116 Lv Ливерморий	117 Ts Теннессий	118 Og Оганесон
60 Nd Неодим	61 Pm Прометий	62 Sm Самарий	63 Eu Европий	64 Gd Гадолиний	65 Tb Тербий	66 Dy Диспрозий	67 Ho Гольмий	68 Er Эрбий	69 Tm Туллий	70 Yb Иттербий	71 Lu Лютеций	72 Hf Гафний
92 U Уран	93 Np Нептуний	94 Pu Плутоний	95 Am Америций	96 Cm Кюрий	97 Bk Берклий	98 Cf Калифорний	99 Es Эйнштейний	100 Fm Фермий	101 Md Менделевий	102 No Нобелий	103 Lr Лавренций	104 Rf Риф



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR. 1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



FEVRAL
№49

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
3-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-3**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-3**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 49-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истикболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Tursinbekova J.A. 5 KLASSTA QARAQALPAQSTAN TARIYXÍ PÁNINEN TARIYXÍY AÑÍZLAR TEMASÍN OQÍTÍW	7
2. Юсупов Ҳамидбек Султанович MUHAMMAD RAHIMXON II - FERUZ MADRASASI TARIXI	9
3. Anvarjonov Avazbek Qudratilla o‘g‘li XOJA ORIF REVGARIY	12
4. Amirov Xoshimxon Hamza o‘g‘li MAROKASH TA’LIM TIZIMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	14



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

5 KLASSTA QARAQALPAQSTAN TARIYXÍ PÁNINEN TARIYXÍY AÑÍZLAR TEMASÍN OQÍTÍW

Tursinbekova J.A.

Nókis olimpiya hám paralimpiya sport
türlerine tayarlaw orayı tariyx páni
oqıtıwshısı. Nókis qalası
+998906627371

Annotaciya

Maqalada mekteplerde “Qaraqalpaqstan tariyxı” sabaqlarında “Tariyxıy añızlar” temasın úyretiw máseleleri haqqında metodikalıq usınıslar berilgen.

Tayanış sózler: Qaraqalpaqstan tariyxı, añız, ápsana, ráwiyat, añızlardağı tariyxıy shınlıq temanı oqıtıw, sabaq türleri, muǵallımniń túsindiriw usılları, interaktiv metodlar.

Bilimlendiriw tarawındağı reformalastırıw talaplarına sáykes mekteplerde “Qaraqalpaqstan tariyxı” páni oqıtıwdıń usıl hám metodların jetilistiriw ayrıqsha áhmiyetke iye. Jámiyetimiz mektepten jas áwladlardı óz eliniń tariyxı menen mádeniyatın, úrp-ádeti menen salt-dástúrin jetik biletuǵın, barlıq jaqsı pazıyletlerdi ózinde sındirgen sawatlı, mádeniy oy-órisi hár tárepleme jetiliske azamat etip tayarlawdı negizgi wazıypa etip belgilep otır. Demek, bunnan shıǵatuǵın tiykarǵı juwmaq – mektepte oqıwshılardı óz eliniń tariyxın hár tárepleme úyretip barıw kerek, sebebi tariyxıy ótmishsiz keleshekti belgilew múmkin emes. Usı baǵdar ústem bolǵanda ǵana tariyx páni óz minnetin atqarıp ǵana qoymay, barlıq jetiskeńliklerimizdiń tiykarlarınń biri sıpatında bahalanadı.

Tariyx páni oqıtıw metodikası boyınsha bir qansha ilimiy miynetler, qollanbalar, ilimiy maqalalar baspadan jarıq kórdi. Degen menen Qaraqalpaqstan tariyxı, sonıń ishinde tariyxıy añızlar temasın orta mekteplerde úyretiw máseleleri dıqqattan shette qalıp kiyatır.

Bul – wazıypa tariyx penen ádebiyattı birgelikte úyrenetuǵın “Tariyxıy añızlar” temasında da óz kórinisin tabatuǵınlıǵı sózsiz. Xalqımız arasında añız-ápsanalar oǵada kóp. Hár bir tariyxıy estelik haqqında añız yamasa ápsana ushıratıwǵa boladı. Bul añız hám ápsanalarda ótmishimizde bolıp ótken tariyxıy waqıyalar yamasa sol dáwirde jasawshı adamlardıń turmız tárizi haqqında azlı-kem shınlıq boladı. Sol sebepten olar naǵız tariyxıy ózi bola almaydı. Olardıń negizinde xalıqtıń ótmishtegi waqıyalarǵa, yamasa burın jasap ótken insanlarǵa degen kóz-qarası, fantaziyası súwretlengen. Ayırım jaǵdaylarda añız yamasa ráwiyatlar ápsanawiy, fantastikalıq kóriniste de ushırasadı. Sonlıqtan oqıtıwshı temanı oqıtıw barısında ádebiyat penen tariyxıy bir pütün organizm sıpatında kóz aldına keltiriwi kerek. Eger, ol añızdağı ápsanawiy qaharmandı mäselen dáw, peri, aydárhanı ómirde bolǵan dep aytsa ol nadurıs boladı. Sebebi, bular oylap tawılǵan obrazlar. Sonıń ushin da oqıtıwshıdan bul temanı oqıtıwda úlken pedagogikalıq sheberlik talap etiledi. Ol tariyxıy shınlıq penen kórkem-ádebiy obrazdı ayıra almasa oqıwshı ayılǵan pikirge isenbey qalıwı múmkin.

Hár bir oqıtıwshı sabaqtı shólkemlestiriw menen baslaydı. Shólkemlestiriwde 3-5 minut ishinde oqıwshılardı barlap, olardıń dıqqatın sabaqqa tolıq qaratıwı kerek. Sońınan úyge tapsırmanı sorǵan maqul. Sebebi, hár bir oqıwshı sabaqqa tayarlanıp kelgennen keyin oqıwshınıń sabaq sorawın kútip otıradı, sonıń menen birge sabaqtıń basında úyge tapsırmanı soraw, juwap bere almay qalǵan oqıwshıǵa ekinshi baha alıw imkaniyatın jaratıp beredi. Ol úyge tapsırmaǵa tayarlanbaǵan bolsa bekkemlew etabında óziniń shaqqanlıǵın kórsetip qosımsha baha alıwı múmkin.

Qaraqalpaqstan tariyxın oqıtıw metodikasınıń talabına bola tariyxıy añızlar boyınsha bilim beriwde ápsana yamasa ráwiyattıń hár bir dáwirine, waqıyaların tariyxıy shınlıǵına, jámiyetlik-siyasiy turmısqa kóz qarasına dıqqat qaratıladı. Sonlıqtan da, mektep lekciyası (muǵallımniń bayanatı yaki túsiniq beriw sózinde) usılında – tariyxıy añızlarǵa tariyxıy-ádebiy sıpatlama, tariyxıy waqıyaları (Nazlımıxan sulıw, Turım biy, Maman biy, Gúldirsın hám t.b) tuwralı maǵlıwmat,



dóretpeleriniń tematikalıq, kórkemlik ózgeshelikleri t.b. máseleler sóz etilip, onıń qaraqalpaqlar tariyxındaǵı ornın belgilew maqset etip qoyıladı.

Muǵallimniń sheberligi sonnan ibarat, ol sabaq basqıshlarında oqıwshılardıń jeke, erkin pikirlewin shólkemlestiriw tiykarǵı másele bolıwı kerek. Bunıń ushın muǵallım taza temanı da tek ózi lekciya formasında ótip qoymastan, oqıwshılardıń aktivligin támiynlewi kerek. Máselen, insan psixologiyasınıń ózgeshelikleriniń biri sonda ol esitkeninen göre kórgen maǵlıwmatların kóbirek este saqlaydı. Sol sebepli házirgi zaman oqıtıw processinde informaciyalıq texnologiyalardıń da áhmiyeti kúsheyip, muǵallimler sabaqların prezentaciya formasında ótkerip, slaydlar járdeminde taza temanı túsindiriwı kerek. Bunda slaydlardı tayarlaǵanda kóbirek tariyxıy obyektlerdiń súwretlerin qollanǵan maqsetke muwapıq. Sebebi, oqıwshı ańızlarda ushıraǵan tariyxıy obyektler (Nazlımxan sulıw maqbarası, Gúldirsın qalası, Ayaz qala hám t.b).

Jańa pedagogikalıq texnologiyalardı informaciya-kommunikativlik texnologiyalarsız kóz aldımızǵa keltiriwimiz múmkin emes, sebebi olar jańa metodlardıń pedagogikalıq, didaktikalıq funkciyaların tolıǵı menen ashıp beredi.

Prezentaciya muǵallimnen kóbirek aktivlikni talap etedi, al muǵallimniń tiykarǵı maqseti oqıwshılardı janlandırıw, aktivlestiriw, bilim alıw processin jedellestiriw bolıp qaladı. Bul ushın jańa pedagogikalıq texnologiyalardıń hár qıylı metodlarınan paydalanıw múmkin. Solardıń ishinde insert, klaster metodların paydalanǵan halda taza temanı úyreniw múmkin.

Sabaqtı bekkemlewde kórkemlep oqıw usılınan paydalansa oqıwshılarda úlken tásir qaldıra alamız. Sabaq barısında bir ańız máselen “Qorqıt ata” oqıwshı tárepinen oqıladı. Bunnan keyin aldınǵı sabaqta berilgen Gúldirsın ápsanasına tiykarlanǵan rolly oyınlar oqıwshılar tárepinen atqarıladı. Bul rolly oyınlardıń áhmiyeti oqıwshılardıń sol ańızdı tolıq úyrenip kóz aldına keltiriwi hámde ózleriniń sezimlerin anıq sáwlelendire alıwın támiyinlep beredi.

Úyge tapsırma bererde de oqıtıwshı dıqqatlı bolıwı kerek, ol tek kitaptaǵı maǵlıwmatlardı oqıp keliwdi tapsırmastan oǵan qosımsha ádebiy kitaplardan, yamasa internet maǵlıwmatlarınan paydalanǵan halda tariyxıy ańızlardı oqıp keliwin soraw kerek. Ol bul ańızdı tek ǵana oqıp qalmastan onda keltirilgen tariyxıy shınılıqtı da ashıp berse maqsetke muwapıq boladı. Kórip turǵanıımızday, dástúriy sabaq tiplerinde alıp barılǵan sabaqlarda muǵallım oraylıq figura bolıp qaladı, al oqıwshılar tek ǵana muǵallım tarepinen berilgen sorawlarǵa passiv juwap beriwshi bolıp qoyadı, onıń erkin pikirlewi, tema boyınsha pikirler bildiriw múmkinshiliklerine iye emes.

Juwmaqlap aytqanıımızda sabaq barısında jańa pedagogikalıq metodlardan paydalanǵanda oqıtıwshı hár qanday usıldı óz ornında hám maqsetke say qollansa sabaq maqsetine tolıq jetedi. Biz búgingi kórip shıqqan usınıslarımız sabaq barısında qollanılsa maqsetimizge jetken bolamız.

Ádebiyatlar

1. A. Sagdiev, G.Fuzailova, M.Hasanova “Tarixni o‘qitish metodikasi” Toshkent 2008
2. S.Kamalov, M.A.Qarlıbaev, A.M.Jumashev, I.V.Piskunova Qaraqalpaqstan tariyxınan gúrrińler. 5-klasslar ushın sabaqlıq, Nókis, 2018
3. K.Palımbetov. P.Allashov Ádebiyat 6-klasslar ushın sabaqlıq, Nókis, 2017



MUHAMMAD RAHIMXON II - FERUZ MADRASASI TARIXI

Юсупов Хамидбек Султанович

УРДУ мустақил изланувчи

Телефон: +998937534056

hamidyusupov753@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muhammad Rahimxon II madrasasi tarixi, madrasaga vaqf qilingan yerlar, madrasa chegarasi, hududlari haqida ma'lumotlar aks etgan. Shuningdek, madrasada ta'lim jarayoni qaytartibda olib borilganligi va qaysi bosqichlarda o'qitilganligi haqida qiziqarli ma'lumotlar aks etgan.

Kalit so'zlar: tanob, mudarris, mulla, xatib, shariat, fiqh, eshon, oxund, mutavalli, vaqf, masjid, so'fiy.

Muhammad Rahimxon II madrasa qurilish ishini hijriy 1288-yilning muharram oyida (milodiy 1871-yilning mart-aprel oylarida) saroy mulozimi Muhammad Niyoz devonbegiga topshiradi [1]. Aksariyat adabiyotlarda Sayyid Muhammad Rahimxonning madrasasi 1871-yilda bunyod etilgani qayd etiladi [2]. Biroq Ogahiyning ma'lumotiga ko'ra, madrasa binosining qurilishi 1871-yilda boshlanib, 1872-yilda nihoyasiga yetadi. Ahamiyatli jihati, madrasa ochilish marosimi o'ziga xos shodiyonaga aylanib, unda shaxsan xonning o'zi ishtirok etib, “hamul madrasa hujralarin tolibi ilm mullolarg'a taqsim qilib berdi” [3].

Madrasa kompleksi masjid, darsxona, tahoratchona, ayvon, kutubxona va hujralardan iborat. Keyinchalik madrasa tarkibida yangi me'moriy inshootlar barpo etiladi. Jumladan, uning old tomonida, majmua tarkibida bo'lgan sahnada 18 hujradan iborat yangi me'moriy inshoot qad ko'taradi va madrasada talabalar uchun mo'ljallangan hujralarning umumiy soni 74 taga yetadi [4].

Feruz o'z nomiga madrasa qurdirishga qaror qildi va bu ishga dovrugli ustalarni jalb etadi. Avvalo, madrasa uchun qulay joy tanlanadi. Bu ishda unga tog'asi Ibrohimxo'ja yaqindan ko'mak berdi va Ko'hna ark binosining kun chiqaridagi eski imoratlar o'rni ma'qul ekanligini xonga aytadi. Feruz bundan juda xursand bo'ldi va Ibrohim xo'jaga bu ishga rahnamolik qilishni tayinladi. U ishboshi, kalontar, sarkor, ustalarga katta miqdorda moyanalar belgiladi. Har bayramda qurilishda ishtirok etayotgan kishilarga sarupolar berib turdi.

Feruzning farmoni oliysiga muvofiq, tantanali ochilish marosimi bo'lib, unga xonlikdagi barcha madrasa mudarrislari, eshonlar, talabalar, saroy a'yonlari to'plandi.

9 surnaychi, 2 karnaychi erta tongdan Ichon va Dishan qal'a ko'chalarida yurib xalqni bayramga chorladi.

Ko'hna ark oldida qozi Muhammad Latif oxun Qur'oni karimdan tilovat qildi. Feruz va uning a'yonlari bayramona kiyingan holda ushbu tantanalarda ishtirok etdilar. Ogahiy o'zining “Ta'rixi binoyi madrasayi Muhammad Rahimxoni”ni o'qidi. Shundan so'ng saroy a'yonlaridan bir guruhini quyidagi tartibda mukofotlash marosimi bo'lib o'tdi:

Otajon to'raga bir asil chakmon, bir to'n, bir ot berildi. Navbat To'ra Murod to'raga keldi. Unga bir asil chakmon, bir to'n, bir ot berildi. Undan keyin Abduqodir to'ra bilan Muhammad Rizo to'ralarga ikki chakmon, ikki to'n, ikki ot in'om qilindi.

Muhammadiyor to'ra, Asqar Mahmud to'ra, Sayid Homid to'ra, Olloyor to'ra va Davlatyor to'ralarga bosh oyoq sarupo va ot in'om etildi. To'ralar otalariga ta'zim etganlaricha in'omlarni olib joylariga borib turdilar.

Madrasa qurilishi ishiga rahbarlik qilgan Yoqub mahramga bir ot, bir shohi to'n berildi.

“Davlatlari ziyoda bo'lg'ay hazratim”, deb Yoqub mahram ot va saruponi borib oldi.

Ushbu marosimda besh yuzdan ortiq odam qatnashib, ularga dasturxon yozilib, avval osma sho'rva, keyin suzma palov tortiladi. Ovqatdan so'ng Ibrohimxo'ja rahbarligidagi dasturxonchilar mehmonlarga ham sarupo tarqatdilar.

Feruz farmoniga binoan, Yusuf hoji oxun madrasaga mudarris etib tayinlandi. Kun botish oldidan qozi Muhammad Latif fotiha o'qidi va hammaga ruxsati oliy berildi. Madrasadan xursand bo'lgan Feruz arkka qaytdi. Arkka kiraverishda orqasiga o'girildi va qarshisida ko'kka intilib turgan o'zining bahaybat madrasasiga ko'zi tushdi. Bu go'zal bino o'zining me'morchilik bobidagi tantanavorligi va mahobatligi bilan boshqa madrasalardan ajralib turajagini sezdi [5].



Muhammad Rahimxon madrasasida har bir hujra uch xonaga: qaznoq (omborxona), yotoqxona va darsxonalarga bo'lingan edi.

1890-yilda Xiva shahrida tug'ilgan, usta naqqosh, tarixchi Abdulla Boltayevning ma'lumotlariga qaraganda, madrasa oldidagi hujralarning qibla (janub) tomonidagisini Pahlavon mirzaboshi, orqa (shimol) tomonidagisini Ibrohim xo'ja o'z hisobidan qurgan. Bu madrasada diniy shariat peshvolari qozikalon, a'lam, muftilar istiqomat qilib, arz-da'volar shariat yo'li bilan hal bo'laturg'on madrasa edi [6].

Madrasa qurilishi va bezalishida “Qibla Tozabog” saroyiga monandlik bor. Bu har ikkala bino qurilishini Feruzning o'zi jiddiy ravishda kuzatib borgan. Muhammad Rahimxonning farmoniga binoan vaqfdan tashqari umumdavlat daromadidan madrasa mudarrislari, oxundlar, masjid imomlari va 1338 o'quvchi, jami 1798 nafar kishi moddiy ta'minoti uchun pul sarflangan va ularga turli in'omlar, hadyalar berib turilgan [7].

Madrasada yozgi va qishki masjid, darsxona, kutubxona va hujralar bor. Madrasaning hovlisi 74 ta bir qavatli hujralar bilan o'ralgan. Lekin ko'pgina adabiyotlarda bu madrasaning hujralari 76 ta deb berilgan, izlanishlarimiz davomida vaqfnomada 74 ta ekanligiga guvoh bo'ldik. Hujralar tomi tashqi tomondan to'siq devor bilan chegaralangan va ikki qavatli bosh fasadga kelib tutashadi. Madrasaning o'lchamlari: 62.4 x 49.7 m; hovlisi 28.8 x 28.3 m; darsxona 5.4 x 5.4 m; masjid 7.0 x 7.0 m.

Madrasa hujralari tomi tashqi tomondan to'siq devor bilan chegaralangan va ikki qavatli bosh fasadga kelib tutashadi. Xushqad peshtoqning ikki yonida besh ravoqli galereya bor. Darvozaxona atrofidagi xonalar 9 ta gumbazga ega. Binoning ichki plani boshqa madrasalar tuzilishidan farq qiladi. Devorlar yuzasidagi sirkor g'ishtchalardan terilgan ornamentli bezaklar odatdagi shakllarni takrorlaydi. Kishida hovlining tuzilishi o'zgacha taassurot qoldiradi. Hovlining bir qavatli hujralari qatori baland dekorativ peshtoqlar tashqi to'siq devor va burchaklardagi chiroyli minorachaguldastalar bilan birgalikda ajoyib manzara kasb etadi.

Madrasaning vaqfi uchun xon tomonidan 2941 tanob (2,5 tanob-1 gektar) yer ajratilgan, chiroyli koshinlar bilan bezatilgan madrasaning ochilish tantanasida zamonaning fuzalo va shuarolari ta'rixlar va qasidalar aytib xondan in'omlar olganlar. Xon o'z ayonlari, qarindoshlari, qurilishda ishlagan usta va hunarmandlarga hadya qilgan xarajatlardan tashqari, bu to'yda 118 tillo sochilgan. Madrasani ochilish marosimida jami 5225 tillo ishlatilgan.

Madrasa ichki hovlisining 4 ta peshtog'iga Ogahiy bilan Komil Xorazmiyning ikkitadan she'riy tarixlari yozilgan. Ularda xonning sharofatidan mamlakat obod bo'lib, adolati jahonga yoyilgani, olimlar daraja topib, maqsadlariga yetishgani, xonning o'zi olim-u fozillarga g'amxo'rlik qilib ilm-fan madadkorini nomiga sazovor bo'lgani tarannum etiladi.

Madrasa hovlisidagi to'rt peshtoqda Ogahiyning to'rt she'ri koshinga yozilgan. Madrasa eshigining ustida esa ikkita marmar toshga yozuv bitilgan bo'lib, birinchisida she'riy ta'rix yozilgan bo'lsa, ikkinchisida vaqfnoma yozilgan. Madrasa xuddi ikki hovlini bir-biriga birlashtirib turgandek tuyuladi [8].

Madrasaning tashqi hovlisida bir qavatli hujralar joylashgan, ichkariga kirib borsangiz, ikki qavatli binolarni ko'rasiz. Eng asosiy bino bu madrasaning juda baland qilib qurilgan peshtoqidir. Ushbu madrasa dargohida juda ko'p adabiy kechalar, mushoiralar o'tkazilgan. Bu yerda Feruz, Komil Xorazmiy, Tabibiy o'z ijod namunalarini bir-birlariga o'qib berganlar.

Muhammad Rahimxon II davrida Xiva xonligida 106 ming xonadonda 742 ming kishi yashagan. Shulardan 30 ming xonadonli turkmanlarning soni 150 ming kishini tashkil etgan.

Shoir va tarixchi Bayoniy iborasi bilan aytganda, “Feruz davrida har bir mahalla o'z masjidi, uning qoshida maktab va madrasasiga ega bo'ldi” [9].

Bu davrda 1500 maktabda o'rtacha 30 o'quvchidan yiliga 45000 ming o'quvchi savodini chiqarib, 130 madrasada o'rtacha 50 talabadan yiliga 6,5 ming kishi oliy ma'lumotli darajaga yetishgan.

Muhammad Rahimxon II madrasasi vaqf xo'jaligi faoliyatida Xiva xonligi an'anaviy ta'limi tizimining ayrim jihatlari ham namoyon bo'ladi. Madrasada ta'lim jarayoni Sayyid Muhammad Rahimxon o'rnatgan talabga ko'ra tashkil etilgan va olib borilgan. Ta'lim an'anaviy uslubda: quyi, o'rta va yuqori kabi 3 bosqichda joriy etilib, talabalarga ikki yo'nalish: mushkulot va mas'ala bo'yicha ta'lim berilgan. Mushkulot yo'nalishida arab tili grammatikasini o'zlashtirish bilan birga asosiy e'tibor aqida ilmiga qaratilgan. Mas'alada esa, asosan, islom huquqshunosligi (fiqh) asoslariga oid kitoblar o'qitilgan. Har bir bosqichda o'zlashtirib borilishi shart bo'lgan darsliklar



ham vaqfnoma shartida aks etgan. Jumladan, mushkulot yo‘nalishida quyi bosqichda-avval ilmdan Aqoidgacha, o‘rta bosqichda-Aqoiddan Mullo Jalolgacha, yuqori bosqichda esa-Mullo Jaloldan oxirgi ilmgacha bo‘lgan darsliklar hamda mas‘ala yo‘nalishida esa quyi-Muxtasari Viqoyadan Sharhi Viqoyagacha, o‘rta-Hidoya va yuqori-Tavzeh kabi Hanafiya mazhabiga oid fiqhiy asarlardan ta‘lim berish joriy etilgan. O‘z navbatida, madrasa talabalari qaysi bosqichda ekanligiga qarab vaqf mulklari daromadlari hisobidan ta‘minlangan. O‘quv yili davomida maxsus kunlar va oylar, xususan, hijriy yil taqvimini bo‘yicha Qurbon bayramidan 20 kun avval hamda sha‘bon oyining 10-sanasidan Ramazon bayramigacha bo‘lgan muddatlar ta‘til davri sifatida belgilangan [10].

Madrasa vaqfnomasida ushbu qoidalar belgilangan edi: “Mudarris tahsil davomida beuzr ketma-ket uch hafta dars o‘tishni tark qilmasin. Mazkur madrasa talabalari tahsil davomida ketma-ket bir oy dars o‘qishni va madrasada yashashni uzrsiz tark qilmasunlar. Madrasa imomi besh vaqt namozni madrasa masjidida o‘qib uzrsiz bir hafta imomlikni tark qilmasun. Mazkur madrasa masjidi muazzini besh vaqt namozda hozir bo‘lib, azon aytib yil ichida bir hafta azon va iqomatni beuzr tark qilmasin. Madrasa farroshi hamisha madrasani ichi va hovlisini xas-xashagini supurib beuzr xizmatini tark etmasun. Madrasa sartaroshi talabalarni soch-soqolini olib beuzr o‘z ishini tark etmasin. Madrasa quduqchisi quduqning chelagini tayyor tutib besabab talabalarni maxtal qilmasun [11].

Madrasa vaqf xo‘jaligidagi xodimlar tarkibi va soni haqida vaqfnomada batafsil ma‘lumotlar keltirilmaydi. Biroq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining “Xiva xonlari arxivi” fondidagi hujjatda 1335/1916-1917-yillarda madrasa ayrim xodimlarining soni va ba‘zi lavozimlarni egallab turgan shaxslar haqida quyidagi ma‘lumotlar keltiriladi. Mudarrislar 7 ta: Qozikalon Eshon, Qozi Xos Eshon, A‘lam Eshon, Rais Eshon, Abdulloh Oxund muftiy Badrxonli, Ibodulloh Maxzum Oxund muftiy, Ibodulloh Oxund bazzoz. Imom 2 ta: Domullo Iyd, Domullo Abdulloh Maxzum. Muazzin 2 ta: Abdullohqori, Ismoilxo‘ja. Farrosh va sartarosh 1 ta: Ollohbergan pichoqchi. Suvchi: Jabborbergan.

Sayyid Muhammad Rahimxon madrasasida mudarrislik lavozimini xonlikning qozi, a‘lam, rais kabi yuqori diniy mansabdorlari doimiy ravishda egallaganliklari ma‘lum bo‘ladi.

Arxiv hujjatida madrasa talabalari tarkibi va ismlari haqida ma‘lumot keltirilmagan. Biroq talabalar uchun mo‘ljallangan hujralarning soni 74 ta ekanligidan kelib chiqib, madrasada talabalarga 148 ta o‘rin ajratilgan deb taxmin qilish mumkin.

Ogahiy madrasa binosi qurilishi haqida 4 ta ta‘rix bitgan.

1994-yilda madrasa qayta ta‘mirlanib, shu yilning sentabr oyida bo‘lib o‘tgan Muhammad Rahimxon II - Feruzning 150 yillik to‘yiga to‘yona qilib madrasaning hovlisiga chiquvchi daxlizlari, o‘quv xonasi va qishki masjidida Xiva xonligi tarixi va madaniyatini ochib beruvchi “Xorazm adabiyoti va tarixi” muzeyi ochildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. GXMZ KP №1304. Muhammad Rahimxon II madrasasining vaqfnomasi.
2. Bulatova V. A., Notkin I. I. Xiva obidalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1972. –B.18.
3. Gulyamov Y. G. Pamyatniki goroda Xivi. - Tashkent: Fan, 1941. –S. 40.
4. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Shohid ul-Iqbol. -Toshkent: Muharrir, 2009. – B. 275.
5. GXMZ KP №1304. Muhammad Rahimxon II madrasasining vaqfnomasi.
6. Rahim D., Matrasul Sh., Jumaxo‘ja N. Feruz Shoh va shoir qismati. Ikkinchi kitob. –Toshkent. O‘zbekiston, 1995. –B. 81-82.
7. Abdulla Boltayev. Xiva tarixiy esdaliklari. Qo‘lyozma. –B. 29-30.
8. Hasanov S. Xorazm ma‘rifati – olam ko‘zgusi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996. –B. 257-259.
9. Zohidov P. Sh., Avanesov R. X. Xiva. – Toshkent. O‘zbekiston, 1994. –B. 64.
10. Hasanov S. Xorazm ma‘rifati – olam ko‘zgusi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996. –B. 261.
11. GXMZ KP №1304. Muhammad Rahimxon II madrasasining vaqfnomasi.



ХОЖА ОРИФ РЕВГАРИЙ

Anvarjonov Avazbek Qudratilla o'g'li,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

Телефон: +998977076397

Avazforever97@gmail.com

Annotatsiya: Xojagon tariqatining ulug' pirlaridan bo'lgan Xoja Orif Revgariyning hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: tariqat, silsila, pir, murid, murshid, sayru suluk, tavoze, xonaqo,

Xojagon silsilasining ikkinchi piri Xoja Orif Revgariy taxminan 560/1165-yili Shofirkon tumanidagi Revgar qishlog'ida tavallud topgan. U “Mohitobon” laqabi bilan mashhur bo'lgan.

Tarixchilarning aytishicha, Xoja Orif Revgariy o'rta bo'yli, ochiq chehrali, katta ko'zli no'lib, butun vujudidan mushk hidi kelar edi. Ulug' valiylerden bo'lib, ilm, hilm, zuhd, taqvo, riyozat va ibodat ahli edi. U bog'bonlik bilan shug'ullangan ko'pincha katta oq salla kiyib yurgan. Xoja Orif Revgariy Abduxoliq G'ijduvoniyni to'rtinchi xalifasidir. Fariddin Ali Safiy o'zining “Rashahotu ayn ul-hayot” asarida Revgariyning Buxoroning Revgar dahasidan ekanini, Abduxoliq G'ijduvoniyni suyuqli shogirdlaridan biri ekanini va Xoja Bahouddin Naqishband Revgariy haqida hurmay bilan shunday deydi: “Xoja Orif Revgariy Xoja Abduxoliq G'ijduvoni qaddasallohu taolo sirrahuning xulafalaridan to'rtinchi halifa tururlar.”¹

Xoja Orif Revgariy yigirma yoshidan boshlab ilm o'rganish uchun Buxoro shahriga yo'l oladi. “Maqomoti Abduxoliq G'ijduvoni va Orif Revgariy” asarida rivoyat qilinishicha, Orif Revgariy yoshligidan ustoz, piri Abduxoliq G'ijduvoniyni xizmatini qila boshlagan. Xoja Orif Revgariy madrasada o'qib yurgan kezlari Abduxoliq G'ijduvoniyni ko'rib qoladi va qo'lidagi yuklarini olishni so'raydi. Shu uchrashuvdan keyin Orif Revgariy G'ijduvoniya shogirt tushadi. Xoja Orif Revgariy u kishining xonaqosiga kirib botiniy ilm o'rganish uchun sayru suluk yo'lida yurishni boshlaydi. Xoja Orif Revgariy izlagan narsajuda mashaqqatli va uzun yo'l edi. Abduxoliq G'ijduvoniya qilgan xizmatlari natijasida Hizr (alayhisalom) Orif Revgariyni ulug' inson bo'lishi uchun duo qilgan ekan. Orif Revgariyning madrasadagi ustozlari Abduxoliq G'ijduvoniya murid bo'lganidan norozi edilar va turli tuman nomaqbul gaplarni aytishar edi. Bu narsa Orif Revgariya ham borib yetadi lekin u bu narsalarga sabr qiladi. Bir kuni madrasadagi ustozini nomaqbul ish qilayotganini tushida koradi va buni ustoziga aytadi. Ustoz uyalib u bilan birga G'ijduvoniya murid bo'ladi. Husomiddin Sig'noqiyning “Risolai Sig'noqiy” va Muhammad Tolibning “Matlab uy-tolibin” asarlarida bir ajib hodisa haqida so'z borgan. Kunlarning birida xoja Ahmad Yassaviy taom pishirib o'zlarining muridi Xoja Dug'iyga Buxoroga borib Abduxoliq G'ijduvoniya qatib olib kelishni buyuradi. Lekin u G'ijduvonga yetib bormasdan Orif Revgariy Ahmad yassaviya qatibni keltirib beradi. Buni ko'rgan Xoja Dug'iy Orif Revgariyni e'tirof etadi.

Abduxoliq G'ijduvoni murshidligida sayru suluk bosqichlarini bosib o'tishda davom etgan Revgariy bora-bora uning eng buyuk muridlardan va xalifalaridan biriga aylanadi. Manbalarda uning karomatlari bilan bog'liq ko'plab rivoyatlar keltiriladi. Jumladan, «Maqomoti Xoja Abduxoliq G'ijduvoni va Xoja Orif Revgariy» muallifining yozishicha, bir guruh mast kishilar Abduxoliq G'ijduvoni o'z muridlarga dars o'tayotgan joyning yaqinida aysh-ishrat va xunuk qiliqlar qilib, bu darsga xalaqit berayotgan chog'ida Revgariy ushbu bezorilarga «haybat nazari bilan» boqish orqali karomat ko'rsatib, ularni bir-biri bilan urishtirib qo'yadi. Natijada ulardan bir nechta bir-birini pichoqlab o'ldirib qo'yadi². Mazkur asarda keltirilgan boshqa bir rivoyatga ko'ra, Xoja Orif Revgariy Buxoroning Niyozobod mahallasi aholisi uchun karomatlar ko'rsatadi. Husomiddin Sig'noqiyning (vaf. 711/1311 yoki 714/1314) «Risolai Husomiddin Sig'noqiy» asarida Xoja Orif Revgariyning o'z muridlari xamroxligida hajga borish yo'lida G'ijduvonda to'xtab, Abduxoliq G'ijduvoniyni mehmoni bulgan

Xoja Muhammad Orif Revgariy taxminan 660/1262 yili o'zi tug'ilib o'sgan Revgar qishlog'ida olamdan o'tadi va ana shu qishloqning o'zida dafn etiladi.

Asarlari. Xoja Orif Revgariy o'zidan «Orifnoma» nomli bir asar qoldirgan. 622/225 yili

1 Sayfulloh S. Yetti pir. – T.: O'zbekiston 2019. – 282b

2 Maqomoti Xoja Abduxoliq G'ijduvoni va Xoja Orif Revgariy. – B. 58-59.



Revgariyning muridlaridan biri, «soliklarning sarasi» Xoja Naim iltimosi bilan Nur qasabasida¹ ushbu tariqat a’zolariga murojaat va nasihat tariqasida yozilgan ushbu asarda muallifning sayru suluk bosqichlari, ma’rifat, oriflik va valiylik hamda sayru suluk odoblari borasidagi qarashlari aks etgan. Bundan tashqari, asarda Xoja Orif Revgariyning ustozlari Xoja Abduxoliq G’ijduvoniyning hayoti, karomatlari va qarashlari bilan bog’liq ayrim ma’lumotlar joy olgan.

Shuningdek, asarning ayrim o’rinlarida tasavvuf tarixining ilk davrlarida yashab o’tgan mashhur so’fiylardan Xasan Basriy (vaf. 110/728), Sufyon Savriy (vaf. chol), Robia Adaviya (vaf. 185/801), Fuzayl ibn Iyoz (107/725-187/802), Shaki, Balxiy (vaf. 194/810), Abu Turob Naxshabiy (vaf. 245/834), Yahyo ibn Muoz Roziy (vaf. 258/871), Boyazid Bistomiy (vaf. 262/875) va boshqalarning hayoti va qarashlari to’g’risida qisqa qissalar va rivoyatlar keltirilgan.

¹ Hozirgi Nurota shahri.



MAROKASH TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Amirov Xoshimxon Hamza o'g'li,
O'zbekiston Xalqaro Islom
Akademiyasi magistranti
Telefon: +998939919033
amirovxoshimxon@gmail.com

ANNOTATSIYA. Marokash ta'lim tizimi mavzusini tarixiy, siyosiy va zamonaviy adabiyotlardan foydalangan holda to'liq o'rganish va ushbu mavzuga ma'lumotlarni tahlil qilgan holda ko'rib chiqish. Shu bilan birgalikda foydali bilimlarni olib uni boshqalarga ham yetkazishdan iborat.

KALIT SO'ZLAR. Marokash, Fes, Qorovin universiteti, SIST, Xalq ta'limi, UNICEF, “La missiya “YuNESKO, “Biznesni boshqarish”.

Asrlar davomida Marokashda xalq ta'limi asosan madrasa va kuttablarda olib borilgan. Milliy Nizomga ko'ra, maktabgacha ta'lim majburiy va 6 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun mavjud. Bu bosqich 4-6 yoshdagi bolalar uchun ochiq. Marokashda maktabgacha ta'lim maktablarining ikki turi mavjud: bolalar bog'chasi va Qur'on maktablari. Bolalar bog'chasi xususiy maktab bo'lib, asosan shahar va qishloqlarda ta'lim beradi; Qur'on maktablari bolalarni asosiy savodxonlik va hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish orqali boshlang'ich ta'limga tayyorlaydi. Qur'on maktablari savodsizlikka qarshi kurashda asosiy kuchga aylanish imkoniyatiga ega. TIMSS bilan birga, barcha bolalarning taxminan 80 foizi o'z maktab yillarining ma'lum bir qismida Qur'on maktablarida qatnashadi.

Uch yillik quyi o'rta maktab mavjud. Ushbu turdagi ta'lim Kollej deb ataladigan narsa orqali amalga oshiriladi. 9 yillik asosiy ta'limdan so'ng talabalar yuqori o'rta maktabni boshlaydilar va san'at yoki fan bo'yicha bir yillik umumiy asosiy o'quv dasturini oladilar. Birinchi kurs talabalari san'at yoki fan, matematika yoki original ta'lim olishadi. Ikkinchi kurs talabalari yer va hayot fanlari, fizika, qishloq xo'jaligi fanlari, texnik fanlarni oladi yoki A yoki B matematika yo'nalishida.

2007 yilda o'rta ta'lim bo'yicha yalpi qamrab olish darajasi GER 55,8 foizni tashkil etdi. Ammo o'rta ta'limda sinflarni takrorlash va o'qishni tashlab ketish ko'rsatkichlari ayniqsa yuqoriligidan qolmoqda. O'rta ta'lim darajasida GER bo'yicha gender pariteti indeksi 2007 yilda 0,86 ni tashkil etdi. U boshqa arab mamlakatlariga qaraganda yaxshiroq emas va o'rta ta'lim darajasida o'qishga kirishda jinslar o'rtasidagi sezilarli tafovutni aks ettiradi.

Oliy ta'lim tizimi ham xususiy, ham davlat institutlaridan iborat. Mamlakatda o'n to'rtta yirik davlat universiteti, jumladan Rabotdagi Muhammad V universiteti va Fesdagi Al-Karauin universiteti hamda Madaniyat vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan Marokash musiqa konservatoriyalari kabi ixtisoslashgan maktablar mavjud. Fesdagi Karauin universiteti 859 yildan beri ta'lim berib keladi va bu uni dunyodagi eng qadimgi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi universitetga aylantiradi. Biroq, SIST Britaniya universiteti kabi o'nlab milliy va xalqaro universitetlar mavjud bo'lib, ular Marokashda oliy ta'limni yaxshilash uchun davlat universitetlari bilan birga ishlaydi. Bundan tashqari, ko'plab xususiy universitetlar mavjud. 2007 yilda oliy o'quv yurtlarini bitirganlarning umumiy soni 88 137 nafarni tashkil etdi. Oliy o'quv yurtlariga yalpi qabul qilish darajasi 11 foizni tashkil etadi va so'nggi bir necha yil ichida u sezilarli darajada o'zgargani yo'q. Davlat universitetlariga kirish uchun faqat bakalavr talab qilinadi, boshqa oliy davlat ta'lim muassasalariga, masalan, muhandislik maktabiga kirish uchun esa maxsus raqobatbardosh testlar va imtihonlar oldidan maxsus tayyorgarlik talab etiladi¹.

Muhandislik va tibbiyotdan tashqari yana bir rivojlanayotgan soha biznesni boshqarishdir. Ta'lim vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2003-04-yilda “Biznesni boshqarish” yo'nalishida o'qishga kirganlar soni o'tgan 2002-2003 yilga nisbatan 3,1 foizga oshgan. Umuman olganda, bakalavriat biznes darajasi uch yil va magistr darajasi uchun o'rtacha ikki yil talab qilinadi.

Marokashdagi universitetlar ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni

¹ Emily Gottreich, The Mellah of Marrakesh: Jewish and Muslim Space in Morocco's Red City, Bloomington: Indiana University Press, 2007, 9



boshladilar. Bir qator universitetlar dasturiy ta’minot va apparat muhandisligi kurslarini ham taqdim eta boshladilar. Har yili akademik sektor axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida 2000 nafar bitiruvchini tayyorlaydi.

Marokash institutlari Yevropa va Kanadadagi institutlar bilan hamkorlik aloqalarini o’rnatgan va taniqli universitetlardan turli sohalarda qo’shma diplom dasturlarini taklif qilgan.

Jamoatchilik mas’uliyatini oshirish uchun Marokash universitetlari 2000 yildan beri natijalarni barcha manfaatdor tomonlarga, shu jumladan ota-onalar va talabalarga ochiq qilish niyatida baholanadi.

Bir qator xususiy institutlarga ega bo’lishiga qaramay, xususiy oliy o’quv yurtlariga qabul qilish darajasi hali ham past, ya’ni universitet aholisining 3,5 foizidan kam. Xususiy institutlar ham kam malakali yoki yetarli xodimlardan aziyat chekmoqda. Bu birinchi navbatda o’quv xarajatlarini cheklash bilan bog’liq. Ayniqsa, biznes maktablarining o’quv dasturlari eskirgan va mehnat bozorining o’zgaruvchan talablariga muvofiq qayta ko’rib chiqilishi kerak. Xususiy sektor kompaniyalari ham hozirgi ishbilarmonlik muhitining professional institutlarini ishchi bilimlar bilan ta’minlashda yetarli hissa qo’shmayapti.

Ichki samaradorlik ham past bo’lib, o’qishni tashlab ketish va takrorlanish darajasi yuqori. Boshlang’ich ta’limga yuqori kirish ko’rsatkichlariga erishgandan so’ng, o’rta maktablarga talabning ortib borishiga ham qondirilmagan ehtiyoj mavjud. Qishloq maktablarida o’quv materiallarining yetarli darajada ta’minlanmaganligi va sifatining ta’minlanmaganligi sababli muammo yanada keskinlashmoqda. Ta’lim sifatining pastligi arab-berber tillari bilan bog’liq muammolar tufayli yanada katta muammoga aylanib bormoqda: berber oilalari farzandlarining aksariyati boshlang’ich bosqichga o’tganlarida maktablarda o’qitish vositasi bo’lgan arab tilini deyarli bilishmaydi.

Mag’rib viloyatida savodxonlik darajasi yuqori. Marokashda kattalar savodxonligi darajasi 2018 yilda hamon 74 foizni tashkil etadi, bu 1956 yilda mustaqillikka erishilgandan beri savodsizlik darajasini pasaytirish bo’yicha o’sha paytda 32 foizni tashkil etgan sa’y-harakatlar tufayli. Marokash arab mamlakatlari orasida eng savodli 16-o’rinda turadi.

Shuningdek, malakali ishchilarning immigratsiya darajasi yuqori bo’lgan, ya’ni o’qimishli odamlar orasida yuqori malakali emigrantlar ulushi yuqori. Shu tariqa Marokash o’zining malakali ishchi kuchining katta qismini xorijiy davlatlarga yo’qotib, Yevropadagi Shimoliy Afrikaliklar orasida eng ko’p muhojir aholini tashkil qilmoqda.

1980-yillarning oxirlarida Mag’rib mamlakatlari hukumatlari savodsizlikka qarshi kurashda fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. 1988 yilda boshlangan NNT dasturi kattalar savodxonligi dasturlarida qatnashgan barcha o’quvchilarning 54 foiziga savodxonlik beradi. Vazirlar va Umumiy dastur, shuningdek, savodxonlik dasturlarini amalga oshirish uchun turli vazirliklar va jamoalarga e’tibor qaratadi. Kompaniya ichidagi dasturlar mehnatga layoqatli aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo’lib, ular kompaniyada doimiy o’qitishga qaratilgan. Marokash va boshqa Mag’rib davlatlari hozir savodsizlikni yo’q qilishga to’liq bel bog’lagan. Marokash o’zining Milliy savodxonlik va norasmiy ta’lim strategiyasini 2004-yilda rasman qabul qildi. Savodxonlik, rivojlanish va qashshoqlikni qisqartirish bo’yicha integratsiyalashgan qarash 2005-yil may oyida qirol Muhammad VI tomonidan boshlangan Inson taraqqiyoti bo’yicha milliy tashabbus INDH tomonidan ilgari surildi.

2005 yilda Marokash hukumati o’qitish sifatini yaxshilash uchun barcha davlat maktablarida AKTdan foydalanish imkoniyatini yaratish maqsadida strategiyani qabul qildi; infratuzilma, o’qituvchilar malakasini oshirish va pedagogik tarkibni rivojlantirish ham ushbu milliy dasturning bir qismi edi. 2019-yil avgust oyida hukumat ta’lim sohasidagi islohotlarni, jumladan, fan fanlarini frantsuz tilida o’qitishni boshlash to’g’risidagi qonunni qabul qildi. 2021-yilda marokashliklar frantsuz tilini olib tashlash va uni ikkinchi darajali til sifatida ingliz tili bilan almashtirish uchun ko’plab kampaniyalar o’tkazdilar. Keyinchalik frantsuz tiliga hech qanday o’zgartirish kiritilmasligi e’lon qilindi¹.

Bir qator donorlar, jumladan, USAID va UNICEF asosiy darajadagi ta’lim sifatini oshirish va o’qituvchilarni o’qitish bo’yicha dasturlarni amalga oshirmoqda. Jahon banki, shuningdek, ta’limning barcha darajalari uchun infratuzilmani yangilashda yordam beradi va turli manfaatdor tomonlarga malaka oshirish bo’yicha treninglar va integratsiyalashgan bandlik yaratish

1 Miller, A History of Modern Morocco (2013), pp. 162–168–169.



strategiyalarini taklif qiladi. Hukumatning yuqori organlarining iltimosiga binoan, ushbu islohot jarayonini davom ettirish uchun jasur Ta'lim Favqulodda Rejasi EEP tuzildi. 2009-12 yillarga mo'ljallangan EEP so'nggi o'n yillikda olingan saboqlarga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, hukumat beshta yirik donorni Yevropa Ittifoqi EI, Evropa investitsiya banki EIB, Agence française de développement AFD, Afrika taraqqiyot banki AFDB va Jahon banki EEPni amalga oshirishga yordam berishni so'radi. islohotlar kun tartibi¹.

Bugungi kunga kelib, fransuz maktablari ya'ni ular “la missiya” deb nomlanadi, ular haqiqatda “Mission Laïque Française” bilan bog'liqmi yoki yo'qmi hali ham Marokashda katta ahamiyatga ega. Bu maktablarda fransuz tili ta'lim tili bo'lib, arab tili faqat ikkinchi til sifatida o'qitiladi.

Maktablar chet elda fransuz ta'limi agentligi tomonidan sertifikatlangan va Fransiya Tashqi ishlar vazirligi tomonidan boshqariladi va talabalar jamoasi odatda Marokashning elita va badavlat sinflari bolalaridan iborat. Kasablankadagi Lycée Lyautey kabi bu maktablar odatda Kasablanka, Rabat, Fes, Marrakesh, Meknes va Oujda kabi yirik shaharlarda joylashgan.

Fransiya chet elda o'qish uchun mamlakatni tark etadigan marokashlik talabalar uchun birinchi o'rinda turadi va Marokashdan tashqarida o'qiyotgan barcha marokashliklarning 57,7 foizini qabul qiladi. 2015 yilda YuNESKO tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, marokashlik talabalar Frantsiyadagi chet ellik talabalarning eng katta guruhidir, bu Frantsiyadagi universitetlardagi barcha xalqaro talabalarning 11,7 foizini tashkil qiladi.

Marokashdagi ta'lim tizimi maktabgacha, boshlang'ich, o'rta va oliy bosqichlarni o'z ichiga oladi. Hukumatning ta'lim xizmatlarining mavjudligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlari ta'limning barcha darajalarida foydalanish imkoniyatini oshirishga olib keldi. Marokashning ta'lim tizimi 6 yillik boshlang'ich, 3 yillik o'rta maktab, 3 yillik to'liq o'rta va oliy ta'limdan iborat.

Marokash 1956 yildan Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zosi bo'lgan. 1993 yil 11-oktyabrda O'zbekiston bilan elchilik munosabatlarini o'rnatgan. Marokash va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorik juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa oxirgi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar yanada rivojlanib kelmoqda. Doimiy tarzda yuqori darajadagi o'zaro tashriflar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Novaya istoriya stran Azii i Afriki. Uchebnoe posobie dlya vuzov / pod red. A.M. Rodrigesa v 3-x chastyax. – M.: Gumanitarnyy izdatel'skiy sentr VLADOS, 2004.
2. L.B. Alaev. Istoriya traditsionnogo Vostoka s drevneyshix vremyon do nachala XX v. Uchebnoe posobie. – M.: izd-vo MGIMO-Universitet, 2006.
3. Emily Gottreich, The Mellah of Marrakesh: Jewish and Muslim Space in Morocco's Red City, Bloomington: Indiana University Press, 2007

¹ Susan Ossman, Picturing Casablanca: Portraits of Power in a Modern City; University of California Press, 1994; p. 37

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 3-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
